





# TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2022- yil yanvar-oktabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **15 698,0** mln, AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **2 348,4** mln, AQSh dollariga yoki **117,6 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-oktabr, mln, AQSh dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>13 349,6</b>	<b>15 698,0</b>	<b>117,6</b>	<b>x</b>
<b>Eksport</b>	<b>3 137,9</b>	<b>3 792,5</b>	<b>120,9</b>	<b>100</b>
<i>tovarlar</i>	<i>1 492,6</i>	<i>1 903,1</i>	<i>127,5</i>	<i>50,2</i>
<i>xizmatlar</i>	<i>1 645,3</i>	<i>1 889,4</i>	<i>114,8</i>	<i>49,8</i>
<b>Import</b>	<b>10 211,7</b>	<b>11 905,5</b>	<b>116,6</b>	<b>100</b>
<i>tovarlar</i>	<i>9 668,3</i>	<i>11 089,5</i>	<i>114,7</i>	<i>93,1</i>
<i>xizmatlar</i>	<i>543,4</i>	<i>816,0</i>	<i>150,2</i>	<i>6,9</i>
<b>Saldo</b>	<b>-7 073,8</b>	<b>-8 113,0</b>	<b>x</b>	<b>x</b>





Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi, bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi, Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **3 792,5** mln,AQSh dollariga (**20,9** % ga ko'paydi) va import hajmi **11 905,5** mln,AQSh dollariga (**16,6** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **8 113,0** mln,AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TOSHKENT SHAHRI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2022- yil yanvar-oktabr mln,AQSh dollari)



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti, misol uchun, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Rossiya federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## 20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA UCHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR

(2022- yil yanvar-oktabr)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (3 642,1 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (3 330,3 mln. AQSh dollari), va Qozog'iston (1 458,5 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir, qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.











Toshkent jahonning 188 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (23,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (21,2 %), Qozog'istonda (9,3 %), Turkiyada (6,6 %), Germaniyada (3,7%), Hindistonda (2,3%) va Birlashgan Arab Amirligida (2,3%) qayd etilgan.



# TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr mln,AQSh dollari)



Davlatlar	2021- yil	2022- yil
 <b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>3 007,0</b>	<b>3 642,1</b>
<i>Eksport</i>	492,0	822,7
<i>Import</i>	2 515,0	2 819,4
 <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>2 914,0</b>	<b>3 330,3</b>
<i>Eksport</i>	708,8	677,5
<i>Import</i>	2 205,2	2 652,8
 <b>Qozog'iston</b>	<b>1 210,0</b>	<b>1 458,5</b>
<i>Eksport</i>	272,4	315,4
<i>Import</i>	937,6	1 143,1
 <b>Turkiya</b>	<b>990,2</b>	<b>1 032,6</b>
<i>Eksport</i>	293,9	275,1
<i>Import</i>	696,3	757,5
 <b>Germaniya</b>	<b>328,2</b>	<b>587,2</b>
<i>Eksport</i>	30,6	44,3
<i>Import</i>	297,6	542,8
 <b>Hindiston</b>	297,9	<b>362,9</b>
<i>Eksport</i>	12,2	12,3
<i>Import</i>	285,7	350,6
 <b>Birlashgan Arab Amirliklari</b>	<b>151,3</b>	<b>362,7</b>
<i>Eksport</i>	20,2	71,6
<i>Import</i>	131,1	291,1
 <b>Koreya Respublikasi</b>	<b>192,2</b>	<b>357,5</b>
<i>Eksport</i>	14,8	16,5
<i>Import</i>	177,4	341,0
 <b>Turkmaniston</b>	<b>395,9</b>	<b>296,3</b>
<i>Eksport</i>	99,0	81,9
<i>Import</i>	296,9	214,4
 <b>AQSH</b>	<b>173,6</b>	<b>271,4</b>
<i>Eksport</i>	35,8	46,8
<i>Import</i>	137,8	224,6









# TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr mln,AQSh dollari)




Davlatlar	2021- yil	2022- yil
 <b>Afg'oniston</b>	<b>303,2</b>	<b>264,0</b>
<i>Eksport</i>	302,0	262,3
<i>Import</i>	1,2	1,7
 <b>Tojikiston Respublikasi</b>	<b>255,3</b>	<b>241,1</b>
<i>Eksport</i>	210,8	187,9
<i>Import</i>	44,5	53,2
 <b>Belarus Respublikasi</b>	<b>147,3</b>	<b>237,6</b>
<i>Eksport</i>	9,6	43,3
<i>Import</i>	137,7	194,3
 <b>Litva</b>	<b>219,5</b>	<b>190,2</b>
<i>Eksport</i>	31,4	31,5
<i>Import</i>	188,1	158,7
 <b>Qirg'iziston Respublikasi</b>	<b>160,9</b>	<b>190,0</b>
<i>Eksport</i>	126,0	159,0
<i>Import</i>	34,9	31,0
 <b>Eron (Islom Respublikasi)</b>	<b>109,2</b>	<b>165,5</b>
<i>Eksport</i>	25,7	44,5
<i>Import</i>	83,5	121,0
 <b>Fransiya</b>	<b>198,0</b>	<b>148,6</b>
<i>Eksport</i>	7,0	5,3
<i>Import</i>	191,0	143,3
 <b>Italiya</b>	<b>207,0</b>	<b>144,9</b>
<i>Eksport</i>	2,8	4,2
<i>Import</i>	204,2	140,7
 <b>Buyuk Brinaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligi</b>	<b>116,5</b>	<b>140,3</b>
<i>Eksport</i>	44,6	68,8
<i>Import</i>	71,9	71,5
 <b>Ukraina</b>	<b>255,5</b>	<b>137,3</b>
<i>Eksport</i>	71,9	29,9
<i>Import</i>	183,6	107,4



## TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-oktabr 2022- yil) \*



	Mln,AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>15 698,0</b>	<b>117,6</b>
Uchtepa tumani	559,5	99,6
Bektemir tumani	394,2	135,5
Yunusobod tumani	1 851,0	128,8
Mirzo Ulug'bek tumani	837,7	118,0
Mirobod tumani	2 929,3	94,8
Shayxontohur tumani	1 390,7	119,3
Olmazor tumani	1 249,7	125,8
Sirg'ali tumani	1 252,7	164,8
Yakkasaroy tumani	1 948,0	158,7
Yashnaobod tumani	1 256,3	86,0
Yangi hayot tumani	267,5	148,5
Chilonzor tumani	1 634,3	122,9
Shartli tuman	127,1	89,6

**Eng yuqori hajm,**  
mln,AQSh dollari

**Mirobod t,— 2 929,3**

**Yakkasaroy t,— 1 948,0**

**Yunusobod t,— 1 851,0**

**Eng quyi hajm,**  
mln,AQSh dollari

**Uchtepa t,— 559,5**

**Bektemir t, — 394,2**

**Yangihayot t,— 267,5**

Shahar tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani **18,7 %** ulush bilan **2 929,3** mln,AQSh dollarini tashkil etdi.



Shahar tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Yangihayot tumani **1,7 %** ulush bilan **267,5** mln,AQSh dollarini tashkil etdi.



Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **40,3** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi **0,9** % ga kamaygan.

## TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln,AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-oktyabr oylarida 2021- yilga nisbatan **19,4** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **59,7** % ni tashkil etdi.





## TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-oktabr mln,AQSh dollari)



**Rossiya  
Federatsiyasi**

TSA – 3 642,1  
Eksport – 822,7  
Import – 2 819,4



**Qozog‘ston**

TSA – 1 458,5  
Eksport – 315,4  
Import – 1 143,1



**Turkmaniston**

TSA – 296,3  
Eksport – 81,9  
Import – 214,4



**Tojikiston**

TSA – 241,1  
Eksport – 187,9  
Import – 53,2



**Belarus  
Respublikasi**

TSA – 237,6  
Eksport – 43,3  
Import – 194,3



**Qirg‘iz  
Respublikasi**

TSA – 190,0  
Eksport – 159,0  
Import – 31,0



**Ukraina**

TSA – 137,3  
Eksport – 29,9  
Import – 107,4



**Ozarbayjon**

TSA – 71,7  
Eksport – 55,6  
Import – 16,1



**Armaniston**

TSA – 13,3  
Eksport – 9,7  
Import – 3,6



**Moldova  
Respublikasi**


TSA – 6,2  
Eksport – 3,3  
Import – 2,9

1992-yil 4- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi)ga a‘zo bo‘ldi,Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-oktabr holatiga **6 294,1** mln,AQSh dollarini tashkil etdi, shundan eksport – **1 708,7** mln,AQSh dollariga yetgan bo‘lsa, import – **4 585,4** mln,AQSh dollari qiymatida qayd etildi.




# TOSHKENT SHAHRINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-oktabr, mln,AQSh dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi, YOII bilan Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi **15 698,0** mln.AQSh dollarini tashkil etdi, shundan eksport hajmi **3 792,5** mln.AQSh dollari, import hajmi esa **11 905,5** mln.AQSh dollariga yetdi.



## TOSHKENT SHAHRI EKSPORTI


(2022- yil yanvar-oktabr)



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida **3 792,5** mln.AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **20,9** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **50,2** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**18,8** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**3,8** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**10,0** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





## TOSHKENT SHAHRI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln, AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2021 y	2022 y	2021 y	2022 y	2021 y	2022 y
<b>Jami eksport</b>	<b>3 137,9</b>	<b>3 792,5</b>	<b>123,5</b>	<b>120,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	113,1	145,4	148,8	128,5	3,6	3,8
Ichimliklar va tamaki	18,3	68,7	143,0	3,7 m.	0,6	1,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	49,8	64,5	2,3 m.	129,5	1,6	1,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	113,8	139,5	100,5	122,6	3,6	3,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	2,1	-	-	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	251,9	379,6	186,5	150,7	8,0	10,0
Sanoat tovarlari	671,4	713,3	2,6 m.	106,2	21,4	18,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	172,5	264,5	136,1	153,3	5,5	7,0
Turli xil tayyor buyumlar	101,8	125,5	124,0	123,3	3,2	3,3
Xizmatlar	1645,3	1889,4	95,6	114,8	52,5	49,8



## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-oktabr, mln,AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi ikki yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2021- yilning yanvar-oktabrdagi **42,4 %** dan 2022- yilning yanvar-oktabrida **45,8 %** ga ko'paydi, mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **57,6 %** dan **54,2 %** ga kamaydi.

### SHAHAR EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2022- yil yanvar-oktabr,% da)



2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida eksport umumiy hajmining Rossiya Federatsiyasi (**21,7 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**17,9 %**), Qozog'iston (**8,3 %**), Turkiya (**7,3 %**), Afg'oniston (**6,9 %**), Tojikiston (**5,0 %**), Qirg'iz Respublikasi (**4,2 %**) va Turkmaniston (**2,2 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **73,5 %** ni tashkil etdi.



## TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)




Davlatlar	mln,AQSh dollari		O'sish sur'ati, o'gan yilga nisbatan % da 2022 y	O'rni	
	2021 y	2022 y		2021 y	2022 y
Rossiya Federatsiyasi	492,0	822,7	167,2	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	708,8	677,5	95,6	1	2
Qozog'iston Resrulikasi	272,4	315,4	115,8	5	3
Turkiya Respublikasi	293,9	275,1	93,6	4	4
Afg'oniston	302,1	262,3	86,8	3	5
Tojikiston Respublikasi	210,8	187,9	89,1	6	6
Qirg'iziston Respublikasi	126,0	159,0	126,2	7	7
Turkmaniston	99,0	81,9	82,7	8	8
BAA	20,2	71,6	3,5 m.	20	9
Buyuk Britaniya va Irlandiya birlashgan qirolligi	44,6	68,8	154,3	10	10
Ozarbajon Respublikasi	33,3	55,6	167,0	13	11
AQSH	35,8	46,8	130,7	12	12
Bolgariya Respublikasi	18,9	45,5	2,4 m.	21	13
Eron Islom Respublikasi	25,7	44,5	173,2	18	14
Germaniya Federativ Respublikasi	30,6	44,3	144,8	16	15
Latviya Respublikasi	10,6	44,0	4,1 m.	28	16
Belarus Respublikasi	9,6	43,3	4,5 m.	29	17
Gretsiya Respublikasi	6,7	38,5	5,7 m.	33	18
Polsha Respublikasi	8,4	37,3	4,4 m.	30	19
Litva Respublikasi	31,4	31,5	100,3	15	20





## TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-oktabr)



	Mln,AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>3 792,5</b>	<b>120,9</b>
Uchtepa tumani	39,2	66,5
Bektemir tumani	46,3	146,7
Yunusobod tumani	414,3	147,6
Mirzo Ulug'bek tumani	119,1	150,2
Mirobod tumani	841,1	65,4
Shayxontohur tumani	548,5	156,3
Olmazor tumani	171,2	135,7
Sirg'ali tumani	320,6	121,7
Yakkasaroy tumani	693,7	2,6 m.
Yashnaobod tumani	205,6	126,2
Yangi hayot tumani	105,2	140,5
Chilonzor tumani	200,1	154,9
Shartli tuman	87,6	2,7 m.

**Eng yuqori hajm,**  
mln,AQSh dollari

**Mirobod t– 841,1**

**Yakkasaroy t,– 693,7**

**Shayxontohur t,– 548,5**

**Eng quyi hajm,**  
mln,AQSh dollari

**Yangi hayot t,– 105,2**

**Bektemir t,– 46,3**

**Uchtepa t,– 39,2**

Shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Murobod tumani **22,2 %** ulush bilan **841,1** mln,AQSh dollarini tashkil etdi.

Shahar eksporti tarkibida eng quyi ulushni Uchtepa tumani **1,0 %** ulush bilan **39,2** mln,AQSh dollarini tashkil etdi.



## TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-oktabr)




2022- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi **11 905,5** mln,AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan **116,6** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**29,4** %), sanoat tovarlari (**20,4**%) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**18,4**%) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovarlarning importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1 693,8** mln,AQSh dollariga ko'paydi va **11 905,5** mln,AQSh dollarini tashkil etdi, xizmatlar importi esa **816,0** mln.AQSh dollariga yetdi.



## TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln,AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan,% da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
<b>Jami import</b>	<b>10 211,7</b>	<b>11 905,5</b>	<b>122,7</b>	<b>116,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	952,2	1262,5	163,3	132,6	9,3	10,6
Ichimliklar va tamaki	62,0	109,0	206,7	175,8	0,6	0,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	189,6	237,0	101,7	125,0	1,9	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	568,0	509,9	290,5	89,8	5,6	4,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	201,4	159,2	169,1	79,0	2,0	1,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1954,5	2187,3	148,6	111,9	19,1	18,4
Sanoat tovarlari	2066,3	2429,7	125,6	117,6	20,2	20,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	3011,0	3495,4	93,6	116,1	29,5	29,4
Turli xil tayyor buyumlar	663,3	699,5	114,8	105,5	6,5	5,9
Xizmatlar	543,4	816,0	120,4	150,2	5,3	6,8





## TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-oktabr, yillar kesimida)




Davlatlar	mln,AQSh dollari		O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan % da	O'rni	
	2021 y	2022 y	2022 y	2021 y	2022 y
Rossiya Federatsiyasi	2515,0	2819,4	112,1	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	2205,2	2652,8	120,3	2	2
Qozog'iston Respublikasi	937,6	1143,1	121,9	3	3
Turkiya Respublikasi	696,3	757,5	108,8	4	4
Germaniya Federativ Respublikasi	297,6	542,8	182,4	5	5
Hindiston Respublikasi	285,7	350,6	122,7	7	6
Korea Respublikasi	177,4	341,0	192,2	12	7
BAA	131,1	291,1	222,0	16	8
AQSH	137,8	224,6	163,0	14	9
Turkmaniston	296,9	214,4	72,2	6	10
Belarus Respublikasi	137,7	194,3	141,1	15	11
Litva Respublikasi	188,1	158,7	84,4	10	12
Frantsiya Respublikasi	191,0	143,3	75,0	9	13
Italiya Respublikasi	204,2	140,7	68,9	8	14
Eron Islom Respublikasi	83,5	121,0	144,9	20	15
Saudiya Arabistoni Qirolligi	7,3	120,1	1645,2	53	16
Ukraina	183,6	107,4	58,5	11	17
Niderlandiya Qirolligi	142,8	91,8	64,3	13	18
Latviya Respublikasi	99,7	82,6	82,8	19	19
Shveysariya ittifoqi	61,9	81,1	131,0	26	20



## TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-oktabr)



	Mln, AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>11 905,5</b>	<b>116,6</b>
Uchtepa tumani	520,2	103,5
Bektemir tumani	347,9	134,1
Yunusobod tumani	1 436,8	124,2
Mirzo Ulug'bek tumani	718,7	113,9
Mirobod tumani	2 088,2	115,7
Shayxontohur tumani	842,2	103,3
Olmazor tumani	1 078,4	124,4
Sirg'ali tumani	932,1	187,6
Yakkasaroy tumani	1 254,3	129,9
Yashnaobod tumani	1 050,7	81,0
Yangi hayot tumani	162,3	154,1
Chilonzor tumani	1 434,2	119,5
Shartli tuman	39,5	35,9

**Eng yuqori hajm,**  
mln, AQSh dollari

**Mirobod t,– 2 088,2**

**Yunusobod t,– 1 436,7**

**Chilonzor t,– 1 434,2**

**Eng quyi hajm,**  
mln, AQSh dollari

**Uchtepa t,– 520,2**

**Bektemir t,– 347,9**

**Yangi hayot t,– 162,3**

Shahar importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani **17,5** ulush bilan **2 088,2** mln, AQSh dollarini tashkil etdi.

Shahar importi tarkibida eng quyi ulushni Yangi hayot **1,4** % ulush bilan **162,3** mln, AQSh dollarini tashkil etdi.

